

J.ORIPOV, X.XALMURODOVA

YOSHLARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI
AXLOQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA
TA'LIM TIZIMINING O'RNI



**Oripov Jamshid Yaxshiboyevich
Xalmurodova Xilola Yusupovna**

**YOSHLARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI
AXLOQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA
TA'LIM TIZIMINING O'RNI**

Samarqand-2023

Jamshid Oripov, Xalmurodova Xilola. Yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni. *Uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2023-yil. 54-bet.*

Mazkur uslubiy qo‘llanmada axborot xuruji tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllanirishda ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetini shakllantirishga qaratilgan faoliyatning yo‘nalishlari, umumiyl o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish tartiblari va umumiyl o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayonini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari hamda oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning prinsipial qoidalari, borasida fikr-mulohazalar yoritib berilgan. Shuningdek, “Yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni” mavzusi yuzasidan nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarishga doir tegishli topshiriq va tavsiyalar ilgari surilgan.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Tarbiya” fani mutaxassislik modullarining uzviy, tarkibiy qismi sifatida nafaqat “Tarbiya” fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursi tinglovchilari, balki umumiyl o‘rta ta’lim maktablari “Tarbiya” fanini o‘qitishda muayyan mavzularni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Taqrizchilar:

X.A. Jo‘raqulov

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali “Ijtimoiy va mutahasislaik fanlari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori (DSc)

G. Tagayev

-Samarqand viloyat PYMOMM ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, falsafa doktori (PhD)

Samarqand viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining 2023-yil 10-maydagi Ilmiy-metodik kengashining navbatdagi 2-sonli qaror bilan tasdiqlangan.

Bugun mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Har qanday davlat o‘zining taraqqiyotini yangi bosqichiga qadam qo‘yar ekan, o‘z oldiga qo‘yan vazifalarni amalga oshirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi. Jumladan, mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim vazifalarini qamrab olgan Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. O‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yan Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans davri poydevorini mustahkam qurish va uning ijtimoiy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashda muhim omil bo‘lgan ta’lim tizimini tubdan yangilashga qaratilgan faoliyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va ushbu qonun asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator qonun osti hujjatlari qabul qilndi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan pirovard vazifalar majmuida ta’lim tizimida axborot xurujlariga qarshi kurashning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ularni o‘quvchilarga o‘rgatish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilayotganligi ushu masalaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolatdir. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, mazkur uslubiy qo‘llanmada yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati borasidagi nazariy fikrlar bildirilgan.

Ta’lim tizimida ushbu uslubiy qo‘llanmadan “Tarbiya” fanini o‘qitishda foydalanish axborot xurujlarining mazmun-mohiyati, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, tizimda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari va tizimda ma’naviy tarbiya jarayonini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari hamda mavzusi yuzasidan nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarishga doir tegishli topshiriq va tavsiyalar ilgari surilganligi bilan ahamiyatlidir.

1. AXBOROT XURUJLARI TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI.

Bugungi global-axborot asrida axborot xurujlarining mazmun-mohiyati, xususiyatlari va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, ularni bartaraf etish usullari borasida mushohada yuritish va ularni chuqur ilmiy asosda tahlil etish ijtimoiy fanlar doirasidagi dolzarb tadqiqot mavzularidan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Axborot xurujlarining mazmun-mohiyati, xususiyatlari va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash, ularni bartaraf etishning metodologiyasini ishlab chiqish borasida S.Otamurotov, Sh.Paxruddinov, Q.Nazarov, N.Jo'rayev, O.G'aybullayev va boshqa ko'plab faylasuf olimlar, tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Biz hozirda o'zining ijobiy va salbiy jihatlari bilan murakkab bo'lgan global-axborot asrida yashamoqdamiz. Bu davrning xarakterli jihat shundaki, axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonining tig'izlashuvi oqibatida dunyo axborot makoni ("Information Space")ga aylanib qolganligidir.

Fan doirasida axborot xurujlari masalasini faqatgina globalizatsiya davri bilan bog'lab tadqiq etishga urunish muammoga bir tomonlama tor ma'nodagi yondoshuvdir. Shuni alohida takidlash lozimki, axborot xurujlari kishilik jamiyatining qaysi davrida bo'lmasin jamiyatga, insoniyat sivilizatsiyasiga xavf tug'dirib kelgan. Agar, globallashuv jarayoni ta'sirida axborot xurujlarini shakli va turlarining ko'payib borayotganligini inobatga olsak, yuqoridagi fikrlarimiz qanchalik to'g'ri ekanligini tushunib yetishimiz mumkin.

Axborot makoni – bu, ko'zga ko'rinxaydigan bir virtual omillardir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, u intellektual – ma'naviy hodisalar sirasiga kiradi. U moddiy ishlab chiqarish emas, balki bilim hamda aqlning mahsulidir. Shu boisdan uning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rniga ko'ra ilm-fan bilangina qiyoslash mumkin. Jismga, umuman moddiylikka adad, hajm, og'irlik, uzunlik va kenglik singari o'lchovlar xos

bo'lsa, axborot esa aksincha, unday xossalarga ega emas. Bu jihatdan axborot olami hadsiz va hududsizdir.¹

Axborot makonining hadsiz va hududsiz ekanligi ayni haqiqat bo'lib, uning ta'sir doirasi ham xuddi shunday o'lchov birligiga ega ekanligidir. Axborot makonida – axborotning tizgini, boshqarish imkoniyatini yo'qotib qo'yish yoki qo'ldan chiqarish, biz kutilmagan xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Zero, axborot makoni faqatgina jamiyat, davlat, inson va uning ongu tafakkurini yuksaltiradigan, salohiyatini o'stiradigan faqatgina ijobiy axborotlardan emas, balki axborot maydoni tajavvuzkor, xatarli, tahdidli salbiy xususiyatlarga ega axborotlardan iboratdir. Shunday ekan, ijtimoiy makonda nafaqat axborot oqimining tizginini nazoratda tutib turish, balki, uni maqsadli yo'naltirish ham talab etiladi.

Bugungi kunda kim axborotni topish, uni yaratish va yetkazib berish imkoniyatlariga ega bo'lsa, u dunyoga ham egalik qiladi, degan oddiy haqiqatni yodimizdan chiqarmasligimiz zarur. Hatto, axborotdan xalqaro tashkilotlarning teng huquqli sub'yektlari bo'lgan ayrim mamlakatlar ham o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishning muhim vositasi sifatida foydalanayotganligi ham haqiqatdir. Bunday jarayon ijtimoiy-falsafiy fanlarda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy munosabatlar tizimida "axborot tahdidi" yoki "axborot xuruji" tushunchasi bilan ifoda etilayotganligi va ularga qarshi kurashish ijtimoiy zarurat ekanligiga urg'u berilmoqda.

Axborot sohasida axborot xuruji qizg'in avj olgan bir paytda ayni ana shu xurujlar mohiyatini uning manbalarini rivojlanish omillarini, ilmiy til bilan aytganda konfliktogen jihatlarini chuqur o'rghanish lozim. Buzg'unchi va hujumkor axborotlar maqsadi, iddaosi, ularning tagida yotgan manfaatlar qanchalik to'g'ri o'rganilsa, ularga shunchalik to'g'ri va ishonchli zarba berish mumkin bo'ladi.²

Axborot xurujining konfliktogen jihatlari deganda, uning nizoli yoki provokatsion jihatlarini nazarda tutish va bunday konfliktogen jihatlarini chuqur

¹ А.Мусахоний. Ахборот макони пайдо бўлиши мумкинми?// Жамият ва бошқарув, 2006 йил. №1

² Бахридин Умаров ва Муяссар Ахмедова. Ахборот тизимларида ахборот – психологик хавфсизлик. Ижтимоий-гуманитар олий таълим йўналиши таълабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: “Chashma print”, 2013. 43-б.

o‘rganish lozim. “Provokatsiya” iborasini ruschadan o‘zbekchaga tarjima qilinganda “qasddan uyuştirilgan va og‘ir oqibatlarga olib keladigan xoinona ish yoki xatti-harakat, fitna, ig‘vogarlik hamda harbiy to‘qnashuv, mojaro keltirib chiqarish maqsadida qilingan tajovuzkorlik xatti-harakati” ma’nolarini anglatadi. Agar axborot xuruji tushunchasining mohiyatiga nazar tashlasak uning negizini qandaydir maqsadga qaratilgan informatsion Provokatsiyalar, targ‘ibot va tashviqotlar tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin.

Axborot xuruji borasida professor A.Muxtarovning: “informatsion tahdidlar; - OAVlari orqali davlatning milliy siyosatini tanqid qilish; soxta xabarlar tarqatish; muxoliflarni gij-gijlash; rahbarlarni zolim qilib ko‘rsatish”,-deb ta’riflaydi¹.

Professor A. Muxtarovning fikrlariga qo‘srimcha qilib aytishimiz mumkinki, bugungi globallashuv turli xil vositalar ko‘magida axborot tahdidlarining ta’sirchanligini oshirish, ularning qamrovini kengaytirish maqsadida kitoblar, kinofilmlar, televideniya, internet, ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda, mish-mishlar, g‘iybatlar va latifalar singari assortimentlar bilan boyib borishining omili bo‘layapti, deyishimiz mumkin. Shuning uchun ham kechagi axborot xuruji bugungisi, bugungisidan erta tashkil etilayotgani o‘zining mohiyati, shakli-shamoyili bilan tubdan farq qilib, ta’sirchanlik darajasining yuqorilab borayotganligi aynan biz aytgan assortimentning natijasidir. Davrimizning bugungi olamshumul kashfiyoti internet, biz aytayotgan assortimentlarning safini yanada boyitish va qudratini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda inson omili ta’sirida vujudga kelayotgan tajovuzlarni sanab ulgurmasimizdan, yana bir yangisiga duch kelmoqdamiz. Mohiyatan olib qaraganda bunday xurujlar o‘zida giyohvand moddalar targ‘iboti, irqiy, diniy murosasizlikni vujudga keltirish, zo‘ravonlik, terrorchilkka undovchi resurslar bilan ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar va axloqiy tamoyillarga qarshi qaratilgan tajovuzkor axborotlarni o‘zida mujassam etadi. Afsuski, axborotning asl mohiyatini anglab yetmaslik, faktlar ustida yuksak intellektual salohiyat, tafakkur doirasidagi

¹ Мухтаров А. Ҳаракатлар стратегияси – мамлакатни ривожлантиришнинг ижтимоий-сиёсий, фойвий ва мафкуравий асослари: ижтимоий-фалсафий назария ва амалиёт. – Т.: “Фан ва технология”, 2018. 122-б.

tahlillarning yetishmasligi, qo'shimcha ma'nbalarga murojaat qilshdagi sustkashlik va masalaga algoritmik yondoshuvni inkor etilishi axborot hamlasining kuchayishida qo'l kelmoqda, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Xuruj [a] 1. To'satdan hujum qilish; hujum.

2.ko 'chma Issiq, sovuq, shamol, yomg'ir, o't, suv kabi tabiat kuchlarining inson irodasiga nisbatan qarshiligi, hamlasi; avjiga chiqish, kuchayish",¹-deb izohlanadi. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, axborot va xuruj tushunchalarining integratsiyasi natijasida hosil bo'lgan axborot xuruji fenomenini izohlaydigan bo'lsak, axborot xuruji – bu jamiyatda mavjud qarashlarga zid g'oyalarni muayyan bir millat yoki elat tanlamasdan inson ongiga qaratilgan buzg'unchi-vayronkor g'oya va mafkuralar asosiga qurilgan feyk (Feyk – (inglizcha) soxta, qalbaki) axborotlardir.

Axborot xurujlarining xatarli va murakkabligini quyidagilarda:

birinchidan, Internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlar yoki vositalar yordamida milliy ma'naviy-axloqiy tamoyillarga zid nosog'lom axborotlar bilan yoshlarning ongini zaharlash hamda ularni qalbini egallashga qaratilgan va bu yo'lda yosh avlodni tarbiyasiga, ularning axloqiga yoki tafakkuriga zarar yetkazishga yo'naltirilgan harakatlarning shiddatli tus olib borayotganligi;

ikkinchidan, axborot xurujini tashkil etayotganlar millat yoki elat tanlamaydilar ular faqat o'zlarining shaxsiy manfaatlarini o'ylashga intilish, nsoniylik tamoyillarini keskin ravishda inkor etish kuchayayotgan;

uchinchidan, muntazam, soxta axborotlar tarqatish natijada kishi, ayniqsa, hali ongu-tafakkuri to'liq shakllanmagan yoshlarda befarqlik, loqaydlik kayfiyatini uyg'otish orqali ularning axloqini buzish, zo'ravonlik, shavqatsizlik va hayosizlik illatlarini mujassam etgan, "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilishning kuchayishida namoyon bo'ladi.

Haqiqatdan ham bir qarashda axborot xurujlarini uyushtirayotganlar qaysidir ma'noda maqsadlariga erishayotgandek. Buni biz yoshlарimизда ibo, hayo, oriyat, g'urur hamda oilaning muqaddasligi kabi xalqimizning milliy mentaliteti, axloqiy tamoyillari va qadriyatlariga nisbatan yuzaki munosabati shakllanayotgan

¹ 3.М.Маруфов таҳрири остида . Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: "Рус тили" нашрёти, 1981. 340- 6.

yoshlarning safi ko‘payib borayotganligida ko‘rishimiz mumkin. Eng achinarlisi shundaki, bunday salbiy illatlarning kirib kelishi yoshlari, hatto xalqimizning ayrim katta avlod vakillari tomonidan ham erkinlik, demokratizm prinsiplari, deya qabul qilayotganligi aynan, shu axborot xurujlari ta’siri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Modomiki, bunday muammolarning ildizini, ularning ta’sirini, salbiy oqibatlarini o‘z vaqtida topib, bartaraf etmaslik jamiyat taraqqiyotiga o‘ta salbiy ta’sir etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlарimizni turli xurujlardan saqlashda ularni ma’rifat asosida tarbiyalash va ongu-tafakkurini rivojlantirish hamda salohiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratib, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi chiqishida: “Bizning asosiy vazifamiz, dedi mamlakatimiz rahbari, yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tamonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”¹,-dedilar.

Atoqli jamiyatshunos olim Narzulla Jo‘rayev “Tarix falsafasining nazariy asoslari” kitobida: “... axborot xuruji tobora avj olib borayotgan, yakka tartibda har bir fuqaro, har bir inson ongiga kuchli ta’sir o‘tkazayotgan, keng miqyosda olganda jamiyat taraqqiyoti va millat taqdirini hal qilishga qodir bo‘lgan, global miqyosda esa butun insoniyat hayotini kafolatlaydigan, uning taraqqiyoti yoki tanazzulini belgilashga qodir bo‘lgan tig‘iz axborot tizimini boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish me’yorlarini ishlab chiqish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir”²,-deb ta’kidlaydi.

Bahriiddin Umarov va Muyassar Axmedovalar esa o‘zlarining “Axborot tizimlarida axborot – psixologik xavfsizlik” nomli ijtimoiy-gumanitar oliy ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanmasida “axborot xuruji”ni: “... kishilarning onggi, tafakkuri, tasavvuriga ta’sir etadigan u yoki bu ko‘rinishdagi fikrni shakllantirishga xizmat qiladigan axborotlar majmui: bosma axborotlar, davriy

¹ “Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentabr.

² Н.Жўраев. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: “Маънавият” нашрёти, 2008. 425- 6.

nashrlar, efirdagi axborotlar (RV, TV), elektron tizim ya’ni, internet tarmog‘idagi axborotlar bo‘ladimi, bu axborotlarni ichki va tashqi manbalaridan himoya qilish zarur. Bu munosabatlar “axborot xuruji” degan tushuncha bilan ta’riflanadi”¹, -deb yozganlaridan axborot xurujlarini uyushtiruvchi vositalarning turli-tuman ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Modomiki biz, bugungi tig‘izlashgan axborot asrida “axborot xuruji”ning vujudga keltiruvchi omillar borasida izlanishlar olib borayotgan ekanmiz, o‘z xulosalarimizga tayanib shuni alohida aytishimiz zarurki: “kishilarning ongutafakkuriga salbiy ta’sir etish maqsadida tashkil etilayotgan negativ axborotlar bosimi ostida “axborot xuruji” vujudga keladi”, - desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, bunday xatarlarda himoyalanish uchun jamiyatda xoh individual, xoh umumiy shaklda bo‘lsin axborot xavfsizligini ta’minalash bosh maqsad bo‘lmog‘i zarur. Sabab, “axborot xuruj”lari jamiyatdagi mutanosiblik va barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan aniq rejalar asosida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan noxolis va noqonuniy axborotlar asosida tashkil etiladi.

Jamiyatda axborot xavfsizligini ta’minalash masalasini Bahriiddin Umarov va Muyassar Axmedovalar jarayon sifatida muayyan davlat, respublika miqqosida tushuntirib berishga harakat qiladilar. Ya’ni ular: “axborot xavfsizligi degani, respublika hududida mavjud bo‘lgan davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolar, umuman jamiyatda iste’molda bo‘lgan axborotlarning erkin va qonuniy aylanuvini himoya qilish va ta’minalashdir”², -deb tushuntirib beradilar.

Axborot xuruji jarayon sifatida jamiyatda mavjud uzoq davrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar va ezgu g‘oyalar, qarashlarga zid mafkuralar hamda e’tiqodlarni millat, elat tanlamasdan inson ongini tobe qilishga qaratilgan, buzg‘unchilik vujudga keltirishga qodir bo‘lgan informatsiyalarni qamrab oladi. Ana shu jihatni hisobga olib axborotlarning parametrlari va ularning elementlarini tadqiq

¹ Бахридин Умаров ва Муяссар Ахмедова. Ахборот тизимларида ахборот – психологик хавфсизлик. Ижтимоий-гуманитар олий таълим йўналиши таълабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: “Chashma print”, 2013. 29-б.

² Бахридин Умаров ва Муяссар Ахмедова. Ахборот тизимларида ахборот – психологик хавфсизлик. Ижтимоий-гуманитар олий таълим йўналиши таълабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: “Chashma print”, 2013. 29-б.

etish, o‘rganish, axborot xurujlariga nisbatan ishonchli va aniq zarba berish imkoniyatini beradi.

Axborot xurujlarida faqatgina insoniyat yoki yoshlarning ongini zaharlashga qaratilgan informatsiya va ma’lumotlardan iborat “yagona qolip” yoki shaklning mavjud emasligi, axborot xurujiga qarshi kurashni murakkablashtirib yubormoqda. Masalan, biz uchun oddiy bo‘lib ko‘rinadigan reklama yoki reklama bannerlari, turli roliklar, anekdotlar, kino filmlar, multifilmlar, fotosuratlar, hatto kiyim-kechaklardagi turli nakleykalar, yozuvlarni asos sifatida keltirishimiz mumkin.

Axborot xurujining jiddiy xavfli tomoni shundaki, bunday tahdidlar muxolif sanalgan mamlakatlar yoki xalqlarga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, insonparvarlik va boshqa hamkorlik niqobi ostida amalga oshirilayotganligidir. Axborot xurujlarini uyushtirayotgan sub’yektlar o‘zlariga muxolif sanalgan mamlakatlarni obro‘sini tushirish, yoki ularning taraqqiyotini yo‘qqa chiqarish, jamoatchilik ongini o‘ziga kerakli yo‘nalishga solishga urunmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasida inson yoki fuqarolarimizni chalg‘ituvchi, tajovuzkor, jamiyat va davlat yoki xalqimiz hayoti uchun xavfli bo‘lgan har qanday axborotlar taqiqlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari tog‘risida”gi qonuning 4-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega.

Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma’naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta’minlash maqsadida chekshanishi mumkin”,¹-ekanligi, mamlakatimizda dezinformatsion, dezoriyentatsion va destabilizatsion axborotlarni tarqatishning qonuniy cheklanganligi hamda bunday axborotlarni tarqatish uchun muayyan jazo choralarining huquqiy asoslari mavjuddir.

¹O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari tog‘risida”gi Qonuni, 2002-yil 12-dekabr, 4-moddasi.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, aholining 12-25 foizigina axborotni tanqidiy nuqtayi nazardan o‘zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa, olingan axborotning ta’siriga shundayligicha berilib ketadi.¹

Demak, yoshlarni axborot xurujlaridan saqlashda birinchidan, ularda tanqidiy tahlilga asoslangan tafakkurni shakllantirtishga qaratilgan profilaktik ishlarni amalga oshirish, ikkinchidan, bunday profilaktik ishlarni tashkil etishda asosiy e’tiborni ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik va mustahkam irodaga ega shaxs etib tarbiyalash masalasi bugun milliylik doirasidan chiqib, umuminsoniylik kasb etib bormoqda.

Sa’dulla Otamurotovning axborot tarqatuvchi vositalar xususida o‘zining “Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik” nomli kitobida fikr bildirib: “Ayni paytda ana shu vositalar insonni axloqsizlik botqog‘iga yetaklovchi hayosizlik, shafqatsizlik, bag‘ritoshlik va zo‘ravonlikning ashaddiy ko‘rinishlari bilan “oshna” bo‘lishga xizmat qilayotganini ham ta’kidlash lozim”, -deb yozadi.²

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda salbiy negativ jihatlarni o‘zida mujassam etgan axborot xurujlari milliy axloq me’yorlarimizga zid xulqiy buzuqlikni, diniy bag‘rikenglik ta’moyillariga mutloqo teskari bo‘lgan diniy ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib etuvchi, o‘z joniga qasd qilishga undovchi saytlarda yoki radio-televide niya kabi ommaviy axborot vositalarida turli mamlakatlarning ijtimoiy siyosiy jarayonlari asossiz yolg‘on ma’lumotlar tarqatish kundan-kun ko‘payib borayotganligi Sadulla Otamurotov mulohazalarining naqadar asosli ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

Bugungi axborot asrida turli axborot xurujlari va axloqsizlik mafkuralari singari xatarlardan yoshlarni asrashning asosiy omili, ularda sog‘lom g‘oya va mafkuralar, ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida axloqiy immunitetini shakllantirishdan iborat. “Odnokllasniki”, “Feysbuk” va “V kontakte” kabi ko‘plab ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning ongi va qalbini zaharlashga qaratilgan informatsiyalar urchib borayotganligi va bunday informatsion urchishlarning tub mohiyatini jamiyatda yoshlarni xudbin, loqayd, shafqatsiz va axloqiy tuban kishilar sifatida tarbiyalash

¹ Полякова Т.А. Правовой обеспечений информационной безопасности при построении информационного общества в России.-дисс.д.ю.н – Москва, 2008. – страница-170.

² Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавсизлик. –Т.: Ўзбекистон, 2013.19-бет.

maqsadining mavjudligi yoshlarda tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Yoshlarda axborot xurujlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan axloqiy immunitetini hosil qilish murakkab profilaktik jarayon hisoblanadi. Bunday profilaktik jarayon qanchalik murakkab bo‘lmashin, u jamiyatda xavfsizlikni ta’minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishning falsafiy asoslarini ilmiy tadqiqot ob’yekti sifatida muhim jihatlarini olib berishda quyidagi:

Birinchidan, jamiyatda muayyan davrlar, hayotiy tajribalar asosida shakllangan tamoyillar asosida yoshlarning ma’naviy olamini yuksaltirish bilan ularda tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini tadqiq etish;

Ikkinchidan, yoshlarning axloqiy immunitetini oshirishning samarali mexanizmini yaratish, shuningdek, uning huquqiy asoslari, ijtimoiy va ma’naviy omillarini tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbollarini belgilab berish;

Uchinchidan, har bir fuqaroni, ayniqsa, yoshlarni turli axborot xurujlaridan saqlashning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ular bilan ma’naviy-ma’rifiy proflaktik ishlarning samarali usullarini amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish;

To‘rtinchidan, yoshlarning axloqiy immunietini shakllantirishga qaratilgan faoliyatni nazariy xulosalarini berish, amaliy takliflarni ishlab chiqish va ijtimoiy hayotga tadbiq etishning metodologik tamoyillariga tayanish zarur.

Yuqoridagi metodologik tamoyillarga asoslanib aytish mumkinki, aynan bugun ijtimoiy-falsafiy fanlar oldida: “Bugungi axborot asrida, qanday qilib jamiyat a’zolarida axloqiy immunitetni shakllantirishimiz mumkin?”, -degan savolga javob topish masalasi ko‘ndalang turibdi.

Immunitet: “(*lot. immunitas* – biror narsadan xalos bo‘lish, qutulish)”¹, -degan ma’noni bildiradi. Mazkur tushuncha dastlab, meditsinada qo‘llanilgan bo‘lib, u kishi

¹ Фалсафа: энциклопедик луғат/ЎЗР ФА, И.Мўминов номидаги фалсафа ва хуқуқ институти. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010 йил, 177 бет.

organizmida kasallikka qarshi kurashuvchi modda yoki kuch, immunitet tushunchasi orqali ifodalangan.

Immunitet tanadagi reaksiyalar majmuasi bo‘lib, uni tashqi infeksiyalarning kirib kelishidan himoya qilish uchun doimiy ichki muvozanatni saqlab qolishi mumkin. Shuningdek, immunitet inson organizmining turli yuqumli kasalliklar ta’siriga bo‘ysunmaydigan o‘ziga xos xususiyatini ifodalaydi.¹

Modomiki, kishi organizmida immunitet hosil qilinsa u kasallikka qarshi kurashadi va organizmning kasallikka bardoshligini oshiradi. Agar, yoshlarda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilinsa ularda zararli g‘oya, mafkura va axborot xurujlariga qarshi tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Taniqli olim Muhammad Quronovning “mafkuraviy immunitet” kategoriyasiga bergen ta’rifi yuqoridagilardan mantiqan tubdan farq qiladi. Muallif: “mafkuraviy immunitet – odam o‘z hayotida amal qiladigan anglangan qoidalar yig‘indisi. Yoki ramziy qilib, uni shaxsning mafkuraviy konstitutsiyasi deb atasa ham bo‘ladi. Bu konstitutsiya ikki asosga tayanadi. Birinchisi – u yashayotgan milliy-ma’naviy muhitda qabul qilingan me’yorlar. Ikkinchisi – shu me’yorlarning odam dunyoqarashida o‘zlashtirilgan qismi”², -deb izohlaydi.

Shuningdek, M.Quronov, A.Qodirov, Sh.Akramovlar o‘zlarining “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” nomli monografiyasida: yoshlarni tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishining oldini olish kabi masalalar tahlil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.³

Mafkuraviy immunitet borasidagi fikr va mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, u ma’no jihatidan keng qamrovli tushunchadir. Agarda, kimda mafkuraviy immunitet shakllangan bo‘lsa unda har qanday g‘oyaviy, mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga nisbatan tahdidbardoshlik immuniteti vujudga keladi. Bunday

¹ Душаев А.Ж. Глобализация и идеологический иммунитет. “Молодой учёный” Научный журнал. № 13 (93) / 2015, 825-с.

² Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. 142-bet.

³ Куронов М., Қодиров А., Акрамова Ш. Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш. – Тошкент: «Маънавият», 2018. -112 б.

immunitetni shakllantirish muntazam ma’naviy-marifiy profilaktik tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ma’naviy-marifiy profilaktik targ‘ibot ishlari o‘z mohiyati bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlarda yoshlarimizning faol ishtiroki, katta avlod vakillari va yosh avlod o‘rtasidagi barqaror muvozanat, milliy an’ana, qadriyatlarg, jamoaviylik ruhiga sodiqlik kabi ezgu-insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash asosida tahdidbardoshlik immunitetini hosil qilishga qaratilgan faoliyatni muntazam kuchaytirib borish shartdir. Zero, yoshlarning tahdidbardoshlik immunitetini shakllanganlik darajasi har qanday ichki va tashqi yoki mavjud ehtimoliy tahdidlarga nisbatan munosib javob bera olish bilan o‘lchanadi.

Yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda quyidagi:

- jasur-faol, zamonaviy yuksak texnologiyalarni o‘zlashtirgan;
- kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan ma’naviy meros va madaniyatimizni chuqur biladigan;
- sharmu-hayo, or-nomus, andisha va sobitqadam, shijoatli dini-dyonatimiz ruhida tarbiyalangan;
- tashabbuskor, bunyodkor, daxldorlik hissi bilan ulg‘aygan, Vatanga sadoqatli milliy g‘urur va iftixon, mustahkam iroda hamda qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida sog‘lom turmush tarzini odat qilgan;
- voqeа-jarayonlarga befarq bo‘lmagan, teran bilim va tafakkur hamda yuksak ma’naviy salohiyat singari shaxsga xos sifatlarni qaror toptirish kabi tamoyillarga tayanish talab etiladi.

Xalqlar o‘rtasida bugungi kunda nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy-ma’rifiy sohalarida ham integratsiya jarayonlari kechayotgan davrda madaniy-ma’naviy integratsiya bilan “ommaviy madaniyat”ni aralashtirib yubormaslik lozim. Chunki, “ommaviy madaniyat” madaniyatsizlik, axloqsizlik unsurlaridan tashkil topgan aksilmadaniyatdir.

Yoshlarni “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoya qilish va ularda axborot xurujlariga qarshi immunitetini shakllantirish eng muhim masalalardan biri bo‘lib

turibdi. Shuning uchun yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhimdir:

birinchidan, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatni rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning falsafiy-axloqiy merosidan unumli foydalanish;

ikkinchidan, axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyat yo'nalishlarini nazariy-metodologik qimmatga ega bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va ilmiy-amaliy ishlar orqali har tomonlama chuqur ochib berish;

uchinchidan, xalqimizga xos ma'naviy-axloqiy tamoyillarni zamon talablari asosida rivojlantirib, boyitib borishda faqat Sharq emas balki, G'arb falsafiy ta'limotlari bilan integratsiyani ta'minlash kabi vazifalarni qo'ymoqda.

Nega axloqiy immunitet masalasi bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda? Mazkur savolga javobni A.S.Metelyaginning: "Axloqiy immunitet-bu mikro va makro muhitda axloqsiz hodisalarga qarshilik ko'rsatadigan shaxsning ajralmas sifati; jamiyatdagi tez o'zgaruvchan ijtimoiy vaziyatga javob berishning yetarliligi, uning ma'naviy resurslarini safarbar qilish, salbiy axloqiy yo'nalishga olib keladigan moddiy va mafkuraviy vasvasalarni bartaraf etish"¹dir, degan izohidan javob topishimiz mumkin.

Muallif tomonidan berilgan ushbu ta'rifida axloqiy immunitetni mikro va makro muhitda axloqsiz hodisalarga qarshilik ko'rsatadigan, jamiyatdagi salbiy axloqiy yo'nalishga olib keladigan moddiy va mafkuraviy vasvasalarni bartaraf etishga qaratilgan shaxsning ajralmas sifati ekanligiga urg'u berayotganligini tushunib yetamiz. Ushbu ta'rifga tayanib aytishimiz mumkinki, axloqiy immunitet-bu jamiyatda mavjud axloqqa zid hodisalar, axloqni buzishga qaratilgan g'oya va mafkuralarga qarshi turadigan shaxsga xos sifati deyishimiz mumkin.

Xo'janova Tamara Jo'rayevna o'zining "Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilga dissertatsiyasida: "Mafkuraviy

¹ Metelyagin A.S. Nrvstvennoe vospitanie shkolnikov na tradiciyah russkoj kultury./Metelyagin AS. moral education of pupils in traditions of Russian culture. Hardcover – January 1, 1971

immunitet tizimining asosiy va bиринчи elementi bilimdir. Ammo bilimning ham turlari ko‘p. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra, Vatan va xalq maqsadlari bilan mukammal bog‘liq bo‘ladi”¹,-deb yozadi.

Bu borada biz ham hech ikkilanmay aytishimiz mumkinki, axloqiy immunitet tizimining asosiy va birlamchi elementi ham bilimdir. Bilim, ma’rifat orqali yosh avlod shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs sifatida shakllangan har qanday kishini muyyan aniq ezgu maqsadlar sari yo‘naltirish, axloqiy tamoyillarni ularning ongi va qalbiga sindirish orqali ularda axloqiy immunitetini shakllantirish oson kechadi. Bu jarayonda, Xo‘janova Tamara Jo‘rayevna aytganidek bilimning barcha turlaridan foydalanishimiz mumkin. Ana shunday bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish va shu orqali turli buzg‘unchi mafkuralar, zo‘ravonlik g‘oyalari va “axloqsizlik virusi” tarqalishini oldini olishda ta’lim tizimidan boshqa keng imkoniyatga ega soha bo‘lmasa kerak.

Jahonda yuzaga kelgan qator tendensiyalar kishilik jamiyatining turli sohalarini tubdan o‘zgartirish, axborot tizimlari xavfsizligini ta’minalash va ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini tatbiq etishni taqozo etmoqda. Axborot hajmi, uni saqlash, qayta ishslash va uzatishning texnologik imkoniyatlari kengayib borishi ulardan jamiyatning barcha tarmoqlarida foydalanishga zamin yaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu tarmoqlarda, xususan, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ham axborot tizimlari xavfsizligini ta’minalash masalasini keltirib chiqarmoqda. Shu bois o‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilish texnologiyasini takomillashtirish va bu orqali o‘quvchilarni turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalash hamda axborot xavfsizligini ta’minalashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.²

Yoshlar o‘rtasida tarqalayotgan “axloqsizlik virusi”ga nisbatan immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimi o‘zining ijtimoiy-ma’naviy imkoniyatlarining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini anglab yetgan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Ayni vaqtida ta’lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash,

¹ Xo‘janova T. J. “Mafkuraviy proflaktika – yosh avlodni g‘oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilga dissertatsiya. – Samarqand, 2021-yil, 21-bet.

² Ёзиева У. Л. Бошлангич таълим жараёнида ўкувчиларни заарали ахборотлар таҳдидидан ҳимоя қилишининг тақомиллаштирилган технологияси. ҚарДУ хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал.- Қарши давлат университети, 2020-йил, 178-бет.

muallimlar, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish, xorijdagi yetakchi ta’lim markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, o‘quv tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalarini, yangi o‘quv metodikalarini joriy etish bo‘yicha hali oldimizda ko‘plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularni yechimi ustida doimiy ish olib boramiz”¹, -deb ta’kidlaydilar.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarga munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning strategik yo‘nalishlarini belgilash, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, ularda jtimoiy ongning barcha shakllarini rivojlantirish, dunyoqarashi, teran ijodiy tafakkurni shakllantirishda zamonaviy ta’lim bilan qamrab olish maqsadida ta’lim tizimini isloh qilish va sohaga xorijiy tajribalarni joriy etishning ommalashib borayotganligi ana o‘sha bosh maqsadning natijasi, desak xato bo‘lmaydi. Zero, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli yangilanishlar, ayniqsa: “Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad barkamol, sog‘lom avlodni zamonaviy va milliy ruhda bilim olish imkoniyatlarini, ular ongiga bunyodkor g‘oyani singdirishning izchil tizimini yaratishdan iboratdir”,²-degan tamoyil asosiga qurilayotganligiga aslo shubha uyg‘otmaydi.

Yoshlarni axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi elementlar bilan tanishtirish, ularning ruhiyati, ongi va qalbiga axloqiy fazilatlarni singdirishda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ilg‘or tajribalar, interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, fanlararo aloqadorlikni ta’minalash, mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyati mavjuddir. Bu jarayonda, tizimning har bir bosqichida tashkil etilayotgan o‘quv jarayonlari va mashg‘ulotlar qamrovi va mazmuni jihatidan bir-biridan tubdan farq qilishiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Yani tizimning har bir bosqichi o‘ziga xos funksiyalarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

¹ Mirziyoyev.Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2018-yil, 448-bet.

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. –Т.: О‘qituvchi MU MCHJ, 2021. – 184 б.

Ta'kidlash lozimki, jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi yangilanishlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, olam va odam hamda ularning mohiyatini tushuntirish, shuningdek, yoshlarni mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyati yuksak shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mazkur masalada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Yoshlarni yuksak ma'naviyatl shaxs sifatida shakllantirish, ularni barkamol avlod sifatida voyaga yetkazish jamiyatimizning barcha jabhalarida bo'lganidek, ta'lim muassasalarining ham eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan"¹, - deb ta'kidladilar.

Modomiki, ta'lim tizimi insonni kamolotida, ijtimoiylashuvi, olam va odamning axloqiy mohiyati borasidagi bilimlarini rivojlantirish vositasi sifatida, yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning muqobil yechimlarini topishning metodologik asoslarini ishlab chiqish va uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish aynan, ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda ta'lim tizimi quyidagi:

- yoshlarga axborot xuruji va axborot tahdidi, shuningdek, axloqiy immunitet o'rtasidagi umumi o'xhash jihatlari va tafovutlari borasidagi ilmiy tushunchalar, fundamental nazariy-amaliy bilimlarni berish bevosita jonli aloqada, o'zaro muloqot vositasida amalga oshirish;

- yoshlar axloqiy immunitetning xususiyatlari borasidagi fundamental bilimlarni yozma, og'zaki, savol-javob va amaliy mashg'ulotlar asosida o'zlashtirish;

- yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish va uning muhim jihatlari borasida o'zlashtirilgan bilimlar, ilmiy dalillarni hayotda qo'llashga o'rgatilish;

- eng muhimi, ta'lim tizimida yoshlarning ehtiyojlarini o'rganish orqali keyingi o'quv faoliyatini tadrijiylik asosida tashkil etish hamda taqdimotlar bilan tushuntirish;

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4623 "О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования" от 27 февраля 2020 года //Маърифат. -Т., 2020. -4 марта. - Б.1-2.

- ta’lim tizimida qo‘yilgan muammolarni yechish imkoniyatining mavjudligi, fanlarni o‘zlashtirishda integratsiyani ta’minlash va o‘quvchilarni fanlararo yo‘nalishlar kesimida qiziqishlarni orttirish;

- yoshlarga zamonaviy yangi metodlar asosida ta’lim berish orqali ularning intellektual va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning maqbul usullarini ishlab chiqish orqali ularni o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish imkoniyatlarining mavjudligi kabi o‘ziga xos jihatlariga ega.

Biz yuqorida yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining muhim jihatlarini sanab o‘tdik. Mazkur jihatlarni chuqur tahlil qilish natijasida ta’lim olishning mazmunini aniqlash va shu orqali ta’lim tizimining maqsadi belgilanadi.

Borliq, olam haqidagi yaxlit bilimlar faqat ta’lim tizimida shakllanadi va takomillashib boradi. Ayniqsa, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, milliy axloq va odob me’yorlari borasida zarur saboq va xulosalar chiqarishda ta’lim tizimi asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, tizimda yaxlit holda yoshlarni olam, fazo va borliqda amal qiluvchi qonuniyatlar va ularning o‘rtasidagi tendensiyalarni tushunib yetish, tarix, axloq-odob me’yorlari, axloqiy-estetik qadriyatlarning inson kamolotida tutgan o‘rni haqida chuqur bilimlar singdirib borish orqali yoshlarda immunitetni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishlari.

Bugungi ijtimoiy hayot, global-axborot asrida, axborot xurujlariga qarshi doimiy kurashni insoniyat uchun ijtimoiy zaruratga aylantirayotgan ekan, axborot xurujlariga qarshi kurashda ijobiy ahamiyatga molik bo‘lgan tamoyillar asosida amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishning muqobil yechimlaridan iborat ilmiy tadqiqotlar o‘rtasida integratsiyani ta’minlash muhimdir. Shundan so‘ng mazkur tadqiqotlar natijasida olingan xulosalarga tayanib, ta’lim tizimining barcha sohalarida ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish asosida yoshlarda axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish axborot asrining muhim sharti va davr talabi ekanligini alohida qayd etish lozim.

Hammamizga malumki, yoshlarning tarbiyasi masalasi hamma zamonlarda bo‘lgani kabi bugungi axborot asrida ham dolzarb va hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Chunki, bir tomonidan globallashuvning salbiy jihatlari bo‘lsa, ikkinchi tomonidan axborot xurujlarining yoshlarning axloqiga ta’siriga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda muhim bo‘lgan tamoyillarni ishlab chiqish murakkab masala sifatida gavdalanmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, axborot asridagi mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish hamda ularni milliy va umuminsoniy axloqiy tamoyillar asosida tarbiya qilishda ta’lim tizimini muhim omil va vosita sifaida qarash mumkin. Bu borada, falsafa fanlari doktori, professor Otabek G‘aybullayevning ta’lim tizimida: “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda boy tarixiy, ma’naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida unda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga katta e’tibor qaratilib, Vatanni gullab-yashnashi har bir insonning mehnatiga, tadbirkorligiga bog‘liq ekanligini uning ongi va qalbiga singdirishga asosiy e’tibor qaratiladi”¹, -degan fikrini asos sifatida keltirishimiz mumkin.

Ustozning mafkuraviy immunitet masalasi borasidagi fikrlari, aynan, axloqiy immunitetni shakllantirishda ham qo‘l keladi. Yuqorida ustoz tomonidan mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida ilgari surilgan me’zonlar, axloqiy immunitetga ham xos xususiyat sifatida ularni yosh avlodning ruhiyatiga, ongi va qalbiga singdirish orqali ularning amoliga aylantirishda ta’lim tizimi muayyan, aniq reja va dasturlar asosida keng qamrovli faoliyatni tashkil etish imkoniyatiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Xo‘s, ta’lim tizimi deganda nimani tushunamiz? Bu tizim qanday strukturalardan iborat?

Ta’lim tizimi:

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini;

¹ O.M. G‘aybullayev. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019, 483-bet.

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;

ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarini;

ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek, ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.¹

Ko‘rinib turibdiki, qonunda ta’lim tizimi keng ma’noda to‘liq tushuntirib berilgan. Ammo, yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni haqida gapirganda maktabgacha ta’lim, umumiyo‘rtta ta’lim, professional va oliy ta’lim sohalarining faoliyat yo‘nalishlarini nazarda tutishimiz lozim. Ana shunday ma’naviy-mafkuraviy va axloqiy profilaktik ishlarni tashkil etishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ham munosib o‘rni bor. Mazkur tizim tarbiyalanuvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirish ishlari ma’lum me’yoriy-huquqiy hujjatlar, dastur va rejalgarda tayangan xolda muayyan odob-axloq tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Odob-axloq tamoyillari umumiyo‘hususiyatga ega bo‘lgan, barcha ijtimoiy munosabatlar sub’yektlariga xos va insonlarni qamrab oladigan, kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi jarayonida yaratilgan o‘zaro munosabatlari madaniyatining asosini mustahkamlaydigan me’yorlarni tushunishimiz mumkin. Odob-axloq me’yorlari o‘z navbatida jamiyatda an’analar kuchi, umum tan olingan tartib-intizom, jamoatchilik fikri asosida qayta ishlanib, muayyan mezonlar asosida takomillashib boraveradi. Odob-axloq me’yorlarining takomillashuvida ijtimoiy muhit, oila, mahalla, ta’lim tizimi, jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ham munosib o‘rni borligi xususida biz yuqorida to‘xtalib o‘tgan edik.

Xo‘sh maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik ishlarni tashkil etish qanday

¹O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, 6-moddasi.

amalga oshiriladi? Bu orada mazkur ishimizda batafsil yoritib berishga harakat qilamiz.

Ma’naviy-mafkuraviy va axloqiy profilaktik ishlarni tashkil etish va tarbiya jarayonida makabgacha ta’limning ahamiyati qay darajada ekanligini O’zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “So‘ngi olti yilda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi naijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog‘chaga bormoqda. Yaqinda Toshkent shahrida o‘tkazilgan YUNESKOning Makabgacha ta’lim bo‘yicha Umumjahon anjumanida ham bu islohotlarimiz yuksak e’tirof etildi.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog‘cha o‘rni kerak. Bu – juda katta marra. Shu bois, bog‘chalar sonini ko‘paytirish, ulardagi ta’lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo‘yicha besh yillik dastur dastur qabul qilinadi. Bog‘cha qamrovini kengaytirish bo‘yicha xususiy sektorga qo‘srimcha sharoitlar yaratiladi”¹, -deb ta’kidlab o‘tganliklaridan anglab yetish qiyin emas.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan. Mazkur tizimda tarbiyalanuvchilar olti-yetti yoshga to‘lguniga qadar rivojlanadilar va ta’lim-tarbiya oladilar, sog‘lig‘i mustahkamlanadi, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari hosil qilinadi, ularda mehnatga muhabbat, kattalarga hurmat, vatanparvarlik tuyg‘ulari borasida dastlabki tasavvurlar shakllantiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalashda zarur shart-sharoitlarga ega tashkilot sifatida tarbiyalanuvchilarni maktab ta’limga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy sog‘lom, axloqiy yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan yondashuvlar ta’lim-tarbiya jarayoning maqsadiga mos holda tuziladi. Tizmga qo‘yilayotgan

¹ “Халқ сўзи” газетаси, 2022 йил 21 декабрь, 2 бет.

bunday talablar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida quyidagi tamoyillar farqlanadi:

- Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.
- Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarining individualligi va rivojlanish imkoniyatlari hamda huquqlarini hisobga olish.
- Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilari, ayniqsa, alohida ehtiyojli bolalar ta'limning faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lif olishi va rivojlanishiga hissa qo'shami.
- Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash.
- Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarining sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.
- Maktabgacha ta'lif tashkilotining oila, mahalla, makkab bilan hamkorligi.
- Milliy-ma'naviy qadriyatlar va tamoyillar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda "Men" konsepsiyasini shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi¹da: "Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati.

... Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lif olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi", - deyiladi.¹

Darhaqiqat, mazkur kompetensiya maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy munosabatlarning faol sub'yekti sifatida muloqot qilish, ijtimoiy jarayonlar, voqealar,

¹ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent 2022, 16-bet

turli vaziyatlar, muammolarni ijobiy hal etish, axborotlarni izlab topish, tahlil qilish, ulardan maqsadli foydalanish, sof va sohta axborotlar orasidagi tafovutlarni aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ulardan foydalanish malakalarini oshirishda kommunikativ kompetensiya muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida ko‘rsatilgan kompetensiyalar orasida maktabgacha yoshidagi bolalarda axloqiy immunitetni shakllantirish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida qat’iy belgilangan tartiblar, xulq-atvor va odob-axloq qoidalariga qay darajada amal qilayotganligi ularning ijtimoiy kompetensiyasi qay darajada ekanligiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi”da: “Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish va o‘rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof olamdagи yangi ob’yektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar.

Bolalar muammoni hal qilishga e’tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyonи tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o‘rganishdan zavqlanishlari va o‘rganganlarini baham ko‘rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishishlari mumkin”¹, -ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilganligidan bilish kompetensiyasining maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayotida ijobiy ahamiyati qanday ega ekanligini anglab yetish mushkul emas.

¹O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent 2022, 17-bet.

Makon va zamonda bilish har qanday sharoit va har qanday yoshda eng muhim omil bo‘lib hizmat qiladi. Mutaxassis olimlarning fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, inson butun umri davomida o‘zlashtiradigan axborot va ma’lumotlarni 70%ni 5-6 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘zlashtirar ekan. Agarda bu davrda bolani maktabgacha ta’lim yoshida ekanligini inobatga olasak, tarbiyalanuvchilarini axloqini buzishga qaratilgan har qanday axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning boshlang‘ich bo‘g‘ini va vositasi sifatida ijobjiy ahamiyat kasb etadi. Ammo, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni chuqur ilmiy tamoyillar asosida reja va dasturlarini yaratishning metodologik asoslarini ishlab chiqish zarur.

Mazkur metodologiya asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatning yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy axloqiy tamoyillarni o‘zida mujassam etuvchi ma’naviy merosi va umuminsoniy axloqiy me’zonlar asosida tarbiyalashda yoshga doir tafovutlarni inobatga olish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik,adolat, or-nomus, shaxsiy namuna, kattaga hurmat – kichikka izzat, ayol zotiga ehtirom, mas’uliyat, milliy g‘urur, vatanparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik va ma’rifatparvarlik kabi axloqiy tamoyillar asosida immunitetni shakllantirishda bolalarning temperament, harakter va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ishtiyoqini, o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytirish orqali ularni muntazam ta’lim jarayoniga tayyorlashning muqobil usullarini izlab topish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoqarash, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularda o‘z fikrlarini erkin ifodalash va mustaqil fikrlash malakalarini xosil qilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bugungi globallashuv asridagi xurujlar, axloqsizlik tamoyillaridan iborat “ommaviy madaniyat” singari tahdidlarga qarshi

axloqiy immunitetni shakllantirishda ularning ongu-tafakkuri va boshqa xususiyatlarini hisobga oligan holda ma’naviy-axloqiy profilaktik tadbirlar hamda targ‘ibot ishlarini tashkil etishda eng sodda usullaridan foydalanish ijobiyligi ahaliyati bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarorida 3—7 yoshli bolalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan xos xususiyatlar: “o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;

o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi;

shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;

ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;

muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;

o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;

bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;

nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.”¹

Shuningdek, “Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagagi bolalarga:

asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish;

muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish;

o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish;

faoliyat va syujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;

ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish;

kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori V bob.

kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish;

o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;

bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar”¹ga o‘rgatish maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida axloqiy immunitetni shakllantirishdagi asosiy tamoyillar sifatida ijobiy rol o‘ynaydi. Mazkur tamoyillar asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida axborot xurujlarini oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni amalga oshirish orqali axloqiy immunitetni shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishning ijtimoiy kafolati sifatida qarash mumkin. Lekin, bunday ijobiy natijalarga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Bu jarayon muayyan maqsadga qaratilgan aniq reja va dasturlar, tartib-qoidalar asosida amalga oshadigan jarayon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda tarbiyaviy-profilaktik ishlarni yangicha, tizimli yondashuvlar asosida tashkil etish, tarbiyalanuvchilarda umuminsoniy fazilatlarni kamol toptirishda sohaning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish, ular orasida ilmiy-metodik muhitning uzviyligini ta’minalash va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarning yechimlarini o‘zida mujassam etuvchi metodologiyani ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi ilm-fanning asosiy maqsadini tashkil etmog‘i lozim. Buning uchun tizimni yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda moddiy-ma’naviy rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir.

2. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish tartiblari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sod Qarori V bob.

Ma'lumki, bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatimiz taraqqiyotining poydevorini yaratuvchisi bo'lgan yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, ta'lim olishlari, axborot kommunikatsion texnologiyalari, IT va boshqa sohalarning yetuk mutaxassislari bo'lib kamol topishlari hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish maqsadida barcha shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining asosiy faoliyat yo'naliшlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, bugungi global-axborot asrida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, milliy ong-tafakkurini rivojlantirish, axborot xurujlariga qarshi tahdidbardoshlik qobiliyati, axloqiy immunitetini shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaga yuksak xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan aloqalarni kuchaytirishning strategik yo'naliшlarini ishlab chiqish har qachongidan ko'ra bugungi kunning ijtimoiy zaruratiga aylandi.

Aslida, axborotning o'zi ham bilimdir. Jamiyatning har bir a'zosi yangilik, ma'lumotlarni turli manbaalardan axborot shaklida oladi. Masalan, dunyo, olam, tabiat hamda inson va ularning mazmun-mohiyati borasida turli kitoblar, internet, ommaviy axborot vositalari, darsliklardan axborotlarni o'zlashtiradilar. So'ngra bu o'zlashtirilganlarning hammasi xotirada saqlanuvchi axborot sifatida bilimlarni aks ettiradi. Demak, axborot bilim sifatida insonning ongida aks etar ekan, faqat uni o'quvchiga qanday shakl va mazmunda yetkazishga bog'liq. Shunday ekan bu axborotlarni iste'molchisiga yetkazish va ularning qalbiga singdirish asosan ta'lim jarayoni bilan uzviy aloqador jarayon hisoblanadi.

Nafaqat ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros balki, umuminsoniy falsafa fani yutuqlaridan axloqiy immunitetni shakllantirishda foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, bunday ijobiy natijalarga erishishda falsafa fani bo'yicha chuqur bilim va udan samarali foydalanish malakalariga ega bo'lish talab etiladi. Chunki, axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda asosiy vosita bo'lgan bilim, ta'lim masalalari va ularning mazmun mohiyati hamda ahamiyati borasida nafaqat sharq, balki g'arb falsafasida ham chuqur mushohada va mulohazali fikrlar mavjud. Fanning ana

shunday namoyondalaridan biri Suqrot ham ta’lim, uning mazmuni va ahamiyati borasidagi fikrlari bilan falsafa fanida chuqur iz qoldirgan.

Suqrotning fikricha, ta’lim olishni mazmuni shundaki, avvalo, qalbni davolash kerak. Qalbni kerak bo‘lmagan axborotdan tozalash, o‘tkinchi, shunchaki yolg‘on qadriyatlardan qutilib o‘z o‘zidan ochilib, o‘z o‘ziga realizatsiya qilish uchun maydon ochilishi kerak. Shundan so‘ng qalb potensiali uni kreativ imkoniyati biz o‘ylaganimizdan ham ko‘proq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchini muhim vazifasi shunday jarayonki u o‘quvchini qalbini uyg‘otish. Qalbni uyg‘otish uchun o‘qituvchi o‘quvchini shaxsiy hayoti va ijodida o‘z yo‘lini topishga ko‘maklashishi kerak.¹

Suqrotning ushbu fikri bugungi texnologiyalar yuksak darajada rivojlangan, zamonaviy axborot asrida ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Haqiqatdan ham ta’lim tizimi, jumladan, umumiyligi o‘rtalim maktablarining ham Suqrot davrida bo‘lganidek, o‘quvchilarining olam haqidagi tassavvurlarini boyitish, xolis yoki noxolis axborotlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda zarurlarini saralab olish imkoniyatini beruvchi bilimlar ayriboshlanadigan, o‘zlashtiriladigan makon sifatidagi vazifasi o‘zgargani yo‘q. Faqatgina sohaning funksiyalari zamon ta’lablari darajasida takomillashib, rivojlanib bormoqda xalos. Bunda o‘qituvchilar o‘quvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda o‘qituvchilar faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, balki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy qo‘llashda yoshlarga o‘rnak bo‘lish amaliyoti, bugungi zamonaviy ta’limning asosiy sharti bo‘lib qolmoqda.

O‘quvchilarini ham ma’naviy ham jismonan sog‘lom, axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, ularda ilmiy dunyoqarash, erkin tafakkur yuritish qobiliyati va axloqiy immunitetini shakllantirish bugungi global-axborot asrida umumiyligi o‘rtalim maktablarining asosiy maqsadini tashkil etmog‘i lozim. Chunki, ilmiy dunyoqarash va erkin tafakkur yuritishga ega shaxs har qanday muammoni, jumladan, axborot xurujlarining maqsadini ilmiy tafakkur asosida

¹Князева Е.Н. “Основания синергетики”. М: издательство Ком Книга 2007. 232-страница.

aniqlash, axloq va axloqiy tamoyillarni buzishga qaratilgan tajovuzkor g‘oyalarni tezda ilg‘ab, ularga qarshi tahdidbardoshlik qobiliyati ya’ni immuniteti shakllanadi. Buning uchun umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilayotgan o‘quv jarayonlari aynan axborot xurujlarini oldini olshga qaratilgan ma’naviy-axloqiy tadbirlarni zamon talablari asosida muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Ya’ni “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi”da ta’kidlanganidek: “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.”¹

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayonini tashkil etish birinchi davri – 7 (6) — 10 yoshli davrda – boshlang‘ich sinflarda, ikkinchi davri – 11 – 17 yoshli davrda – o‘rta va yuqori sinflarda amalga oshirishning ikki davrni qamrab olgan qat’iy qoida asosida bajarilishi mazmunida ham muayyan maqsadlarni qamrab olish nazarda tutilgan. Ya’ni birinchi davr – boshlang‘ich sinflarda e’tiborga olish lozim bo‘lgan muhim jihatlar: “Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarini ta’lim mazmuniga keng singdirish;

o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiylar);

muvaqqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi;

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sodn Qarori VI bob.

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;

o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;

tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish”,¹- kabilarga alohida e’tibor qaratish orqali umumiyl o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatning asosiy komponentlari hisoblanadi.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi”da umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayonini tashkil etishning ikkinchi davrida – o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qattiy qoidalar belgilab berilgan. Mazkur qattiy qoidalar: “... o‘smirlig yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi;

irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sod Qarori VI bob.

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi;

fugorolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlar, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;

o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar;

ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi;

ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi, emotSIONAL munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi;

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi”¹lardan iborot serqirra faoliyat jarayonidir.

Ma’lumki, I-XI sinflar uchun “Odobnama”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fani joriy qilindi. Shuningdek, “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish uzlusiz ma’naviy tarbiya samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan yana bir faoliyat yo‘nalishi desak adashmagan bo‘lamiz. Shuningdek, qarorda: “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o‘smlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasini yaratish;

davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejaliari asosida o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sون Qarori VI bob.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan to‘garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish.

O‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan “Fazilatli avlod” va boshqa metodik qo‘llanmalarini ishlab chiqish.

Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida buyuk ma’rifatparvar siymolar merosini targ‘ib etishga qaratilgan “O‘n ikki oy - o‘n ikki alloma” kitobxonlik oyliklarini tashkil etish.

Aholi, pedagoglar, jamoatchilik, bolalar orasida uzlucksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida bir yilda ikki marta sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida uzlucksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini o‘lchash va baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda bir yilda ikki marta o‘lchash va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muntazam muhokama qilib borish.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta’sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

O‘g‘il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo‘ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g‘ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Har yili bir marotaba “Milliy tarbiya va zamon” mavzusida pedagogik simpozium o‘tkazib borish.

Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko'rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda "Tarbiya maktabi", "So'rang! Javob beramiz, o'rgatamiz" ruknida pedagogik chellenjlar tashkil etish"¹, -kabilar ham umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ishlarni yuksak daraja va yuqori saviyada tashkil etishga xizmat qiluvchi tamoyillar, tadbir va me'zonlar, shuningdek, amaliy faoliyatni asosini tashkil etuvchi yo'nalishlar belgilab berilganligi bilan ham ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Ammo, masalaning yana bir ikkinchi tomoni ham borki, bunda umumiy o'rta ta'lif tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, rahbar kadrlar jamoasi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiysi doirasida ma'naviy tarbiya jarayonlarining samaradorligiga xizmat qiluvchi tamoyillarni mujassam etuvchi amaliy faoliyatning mazmun-mohiyati borasida chuqur bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Mazkur pedagogik jamoa bilan albatta, o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishda quyidagi: "- o'quvchilarga zararli axborotlar va ularning turlari hamda shaxs dunyoqarashiga salbiy ta'siri haqida (boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dastlabki tushuncha) bilimlar berish;

- bugungi davr o'quvchisining qiziqish va ehtiyojlarini o'rganish asosida va uni inobatga olib ular faoliyatini to'g'ri yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

- zararli axborotlar ta'siriga tushib qolgan o'quvchilarning oila va mahallalaridagi mavjud holatni o'rganish orqali muammoning asl sababini ohib berish;

- o'quvchilarni zararli axborotlardan himoyalashda o'qituvchi va ota-onalarga pedagogik bilim berishning samarali shakllarini ishlab chiqish"², -kabi ijobiy ahamiyat kasb etuvchi yuksak vazifalarni amalga oshirish orqali umumiy o'rta ta'lif maktablarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda yuqori natijalarni qayd etishlari mumkin. Zero, teran tafakkur, keng dunyoqarash va yuksak

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalgaga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori VI bob.

² Ёзиева У. Л. Башлангич таълим жараёнида ўкувчиларни заарали ахборотлар таҳдидидан ҳимоя қилишнинг такомиллаштирилган технологияси. ҚарДУ хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал.- Қарши давлат университети, 2020-йил, 179-бет.

bilim asosida har qanday axborot xurujlari, axloqsizlik g‘oyalariga qarshi tura oladigan, tahdidbardosh immunitetiga ega yoshlarni tarbiyalashning ustuvorligini ta’minlovchi ijtimoiy-ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

3. Oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning prinsipial qoidalari.

Bugungi global-axborot asrida axborot xurujlarining shakllarining ko‘payib borayotganligi bilan murakkablik kasb etmoqda. Ya’ni, axborot maydonida sof axborotlardan ko‘ra asossiz nosog‘lom axborotlarning harakati ya’nada tezlashib bormoqda.

Axborot xurujlari o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Ular muayyan manbalar ta’sirida yuzga keladi. Bunday manbalarga: “...internet, mobil aloqa vositalari, disklar orqali tarqalayotgan ommaviy madaniyat, odam savdosi, milliy va umummilliy ma’naviyatga zid bo‘lgan turli g‘oyalar, kompyuter o‘yinlari, jangarilik, kashandalik, giyohvandlikni targ‘ib etuvchi filmlar va boshqa shu kabilarni kiritishimiz mumkin.”¹ Ana shu manbalar axborot xurujlarini yuzaga kelishini tezlashtirib yubormoqda va bu tezkorlik negizida axborot xurujlarining shiddatkorligi va xatarlilik darajasini ortishiga ta’sir etayapti.

Bizni tashvishga solayotgan masalaning xatarli tomoni shundaki, axborot almashishning qamrovi, uning jadal harakatiga beqiyos darajada ta’sir ko‘rsatayotgan vosita va usullarning takomillashib borayotganligidir. Bu jihat jamiyatda axborot xurujlarini oldini olishning samarali usullarini yaratish va muayyan qonuniyatlarga tayanadigan maqbul yechimlarini topishning strategik asoslarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fanlarning oldidagi asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarning qalbi va ongida vujudga kelayotgan bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan axborot xurujlaridan saqlashning eng muhim omili bo‘lgan axloqiy immunitetni shakllantirishda ezgu axloqiy mezonlar, axloqiy tamoyillar va

¹ Ёзиева У. Л. Бошлангич таълим жараёнида ўкувчиларни заарли ахборотлар таҳдидидан химоя қилишнинг такомиллаштирилган технологияси. ҚарДУ хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал.- Қарши давлат университети, 2020-йил, 179-бет.

qadriyatlarni muntazam singdirib borishda oila, mahalla, mehnat jamoalari, madaniyat maskanlari, sport sohasi bilan bir qatorda ta’lim tizimi ham muhim vosita sifatida keng imkoniyatlar sohasi hisoblanadi.

Haqiqadan ham yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining keng imkoniyatlaridan samari foydalanish uchun, avvalo, sohada aniq reja va dasturlar asosida faoliyatni tashkil etishning strategik, ilmiy-metadologik va huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Zero, axborot xurujlarining xususiyatlarini tushuntirish va ularga qarshi kurashning asosiy tamoyillarini o‘quvchilarning ongiga singdirish orqali ularda axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim sohasining barcha yo‘nalishlarida imkoniyatlarning mavjudligi va samaradorligi yuqori darajada ekanligi bilan ham tizimning, jumladan oliy ta’lim sohasining ham asosiy vazifasi sifatida qarashimiz mumkin.

Darhaqiqat, oliy ta’limda talabalarga axborot xurujlari, uni keltirib chiqaruvchi sabablar va oqibatlarini tushuntirish, axborot xurujlariga qarshi kurashning omilkor usul va vositalarini o‘rgatishda umume’tirof etilgan tamoyillar asosida tarbiyalash, shuningdek, axloqiy immunitetni yoshlarning hayot tarziga aylantirishda maqbul yechimlarni topishning muqobil usullarini ishlab chiqish, shuningdek, axloqiy immunitetning mazmunini yanada boyitishda ta’lim-tarbiyaning uzviyligini ta’minlashning prinsipial metodologiyasini yaratish va pirovard aniq natijalarga erishish, axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi elementlarni tadqiq etish, uning komponentlarini aniqlashda oliy ta’lim sohasidagi ilmiy-ma’rifiy muhit ijtimoiy omil sifatida asosiy ro‘l o‘ynaydi.

Asosiysi, oliy ta’limdagi ilmiy-ma’rifiy muhit axloqiy immunitetning mazmunini qanday elementlar tashkil etadi va u qanday me’zonlardan iborat? degan savollarga ilmiy asosda javob topish, chuqr falsafiy tahlillar asosida xulosalar berish hamda tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Ana shunday ilmiy tahlil va xulosalar asosida o‘rganilayotgan tadqiqot ob’yektining mazmunini tashkil etuvchi elementlarni tadqiq etish va ularni o‘rgatish asosida tinglovchida, ayniqsa yoshlarda shu ob’yektga nisbatan mulohaza yuritish, o‘zining chuqr bilimi, tafakkuri darajasida xulosalarini berish hamda muammolarning yechimini topishga ishtiyoq va

harakat uyg‘oadi. Ana shuning uchun ham biz ta’lim tizimining barcha sohalarida axborot xurujlarini keltirib chiqarayotgan sabablar va uning oqibatlarini hamda axloqiy immunitetning mazmuni yoshlarga o‘rgatish bilan ularda mustahkam immunitetni shakllantirishga erishmog‘imiz mumkin. Shundagina, yoshlarda axborot xurujlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan immun tizim, tahdidbardosh salohiyatni tarbiyalashimiz mumkin.

Shu o‘rinda, tadqiqot ishimizni tayyorlash jarayonidagi to‘plangan materiallar, manbalar va xulosalarga tayanib axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi elementlar va komponentlarni sanab o‘tamiz. Axloqiy immunitetning mazmuni quyidagilardan:

- axloqiy me’yorlarning mezonlarini, aniqlash va milliy xotirani uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglashga o‘rgatish;

- jamiyatda muayyan axloqiy mezonlar asosida xalqlarni muayyan maqsadlari tevaragida birlashtirishga undovchi harakat manbayi bo‘lish;

- insonning qalbi va ongiga ijobiy ta’sir etadigan axloqiy tushuncha, tuyg‘ular, axloqiy tamoyillar tizimini o‘zida mujassam etish;

- har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarish imkonini beradigan axloqiy tamoyillarning eng maqbullarini belgilab olish;

- millat va jamiyatni muayyan tamoyillar asosida birlashtiruvchi manba sifaida yuksak ishonch-e’tiqodga yo‘naltiruvchi kuch bo‘lish;

- mamlakatimizda yashovchi barcha millat, elat, xalq va din vakillariga birdek taaluqli mezon bo‘lish;

- axloqiy immunitet ijtimoiy fenomen va hodisa sifatida sub’yektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan holi, har qanday insonni ezgulikka chorlaydigan g‘oyalar atrofida birlashtiruvchi hamda shu g‘oyaga barchani birdek amal qilishga undovchiadolat, erkinlik, ezgu insoniy fazilatlardan iboratdir.

Biz yuqorida ta’kidlagan axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi tamoyillar asosida yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish va bu jarayondagi faoliyatni doimiy ravishda monitoringini olib borish ijobiy ahamiyat kasb etadi. Zero, monitoring natijasida erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalarni amaliy faoliyatga

joriy qilishning tartiblarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Mazkur sohada to‘plangan tajribalarga tayanib yoshlarni yuksak bilm va ma’rifat bilan qurollantirish orqali ularda axloqiy immunitetni shakllantirishimiz mumkin.

Darhaqiqat, bilm, ma’rifat ustuvor bo‘lgan jamiyatda yuksalish, taraqqiyot va burulish bo‘ladi. Bunday yuksak va salmoqli vazifalarni amalga oshirishda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini asosiy maqsadiga aylantirishda to‘sinq bo‘ladigan sohadagi muammolarning yechimini topish va bartaraf etish shartdir.

Albatta, bilim, ma’rifat orqali kishida erkin tafakkur, dunyoqarash va fikr yuritish qobiliyati shakllanadi. Bu borada siyosatshunos olim Baxtiyor Omon shunday deydi: “Fikrlamaydigan bola ulg‘aysa, o‘z yo‘li va maqsadiga erishmog‘i qiyin kechadi, chunki fikr – inson botiniy (ichki) qiyofasi aks etadigan ko‘zgu!

Fikrsizlik – madaniyat kushandas, ma’naviy o‘lim! Fikri yo‘q odamning qiyofasi bo‘lmaydi. Fikr yo‘q joyda olomonlik va johillik ko‘pchiydi. Bu fikrimizga dunyoda bo‘lib o‘tayotgan favqulodda holatlar guvohlik berib turibdi. Eng yomoni shuki, o‘qimagan, fikrlashni xohlamagan kishining farzandlari va avlodlari ham shunday holga tushishi mumkin.”¹

Agarki, insonda fikr bo‘lmasa u har qanday arzimas to‘silalar oldida sarosimaga tushib, yo‘lini yo‘qotib qo‘yishi hech gap emas. Haqiqatdan ham kishida fikr bo‘lmasa u atrofdagi jarayonlarga, voqealarga befarq va loqayd qaraydi. Mazkur toifadagi kishilar jamiyatning, taraqqiyotning qolaversa, millat va eletlarning eng xavfli dushmanidir. Chunki, ularning befarqligi, loqaydligi har qanday taraqqiyotning, madaniyat yoki svilizatsiyani ich-ichidan yemiradi va bu og‘ir oqibatlarga olib keladi. Shu boisdan ham bugungi kunda mamlakatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘quvchi, talaba yoki maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining fikr yuritish qobiliyatini shakllantirishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topishga o‘rgatish masalasiga katta e’tibor qaratilayotganligi davlatimiz tomonidan yuritilayotgan oqilona siyosati natijasidir.

¹Бахтиёр Омон. “Таълим ва миллӣ таракқиёт: муаммо ва ечим” mavzusidagi maqolasi. January 23, 2023

Mustaqil fikrga ega, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topishga qodir bo‘laga avlod, axborot asridagi har qanday g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar, axborot xurujlariga nisbatan immunitet aynan, teran tafakkur, keng dunyoqarash, voqea-jarayonlarga nisbatan o‘z fikriga ega, ularni analiz va sintezlash orqali xulosa chiqarish salohiyatiga ega yoshlarda tez va oson shakllanadi. Bunday salohiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar sub’yektlari o‘z xatti-harakatlarini, faoliyatini aynan axloq tamoyillar negiziga quradi. Mazkur fikrlardan ko‘rinib turibdiki, inson kamolotida ta’limning o‘rnini hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Ayniqsa, yosh avlodni axloqiy yetuk, intellektual salohiyati yuksak, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyatining yuqori ekanligi bois ham bugungi kunda ta’lim tizimida keng qamrovli yangilanish, moderinizatsiyalash ishlari, tom ma’nodagi islohotlar bilan omuxtalashib ketganligi bejizga emas.

Darhaqiqat, bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida oldimizga qo‘yan eng buyuk maqsadlarimiz, jumladan, Uchinchi Renessans paydevori ta’lim-tarbiya, ilm-fan dargohlarida yaratiladi. Umuman olganda, Yangi O‘zbekistonni yanada taraqqiy ettirish, Uchinchi Renessansning poydevorini mustahkam qilib qurish, yoshlarda g‘oyaviy-mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish ta’lim-tarbiya va ilm-fanning yutuqlarisiz erishib bo‘lmaydigan mavhum jarayondir.

Malakatimizni yanada taraqqiy ettirish, Uchinchi Renessansning poydevorini qurish, yoshlarda g‘oyaviy-mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirishda ta’lim-tarbiya va ilm-fanning ahamiyatini chuqur his qilgan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘لامи va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar,

Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk qudratli kuchga aylanadi”.¹

Haqiqatdan ham bugungi murakkab davrda intellektual salohiyati yuksak, dunyoqarashi keng, teran fikr, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan salohiyati yuksak yoshlarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalash zarurati har qachongidan ham bugungi global-axborot asrida dolzarb ahamiyati ortib bormoqda. Ana shu dolzarblikdan kelib chiqib bugungi ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda va oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda buzg‘unchi g‘oya-mafkuralarga qarshi immunitetni shakllantirish borasidagi ishlarni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish hamda talaba-yoshlarni turli axborot xurujlaridan saqlash maqsadida, sohada amalga oshirishni nazarda tutuvchi: “oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan

¹ “Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //“Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 30-декабрь.

barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash”,¹-kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi doirasida, oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarni dunyoqarashini shakllantirish, ilmiy-huquqiy va axloqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish, hayotga tayyorlashda hamkorlikni yanada kuchaytirish yoshlarda axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo mazkur konsepsiya doirasida belgilangan ustuvor vazifalardan og‘ishmasdan aniq maqsadga yo‘nalirish lozim bo‘ladi.

XULOSA

Mamlakatimizda ta’lim tizimini tizimli ravishda takomillashtirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni tarbiyalash va sohada malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, tizmni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda yangi O‘zbekiston sharoitida barcha tarmoqlarni rivojlantirish hamda mamlakatimizda Uchinchi renessansning poydevorini nafaqat qurish, balki unga tom ma’noda erishish maqsadida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, hududlarda davlat va nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini kengaytirish, ta’lim sohasida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish, yoshlarni oliv ta’limga jalg qilish qamrovi darajasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda yangi davr pedagogikasi talablariga javob beradigan ta’limning ilg‘or standartlarini ishlab chiqib o‘qitish jaroyoniga joriy etish, nazariy bilim qaratilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘tish, shuningdek, ta’limning sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barqaror rivojlanishda munosib hissa qo‘sha oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni nazarda tutuvchi metodikalar bilan qurollantirish kabilar, biz yuqorida aytib o‘tgan islohotlarning debochasidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yoshlarning intellekti, bilim-saviyasini oshirish hamda ularda bugungi global-axborot asrida mavjud tahdid va xurujlarga nisbatan immunitetni shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib borayotgan ekan, bunday vazifalar albatta, ta’lim dargohlarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning sifatiga bog‘liq. Chunki, mamkativizning taqdiri, uning kelajagi bugungi ta’limning qanday tashkil etilganligiga bog‘liq. O‘z navbatida ta’limning sifati uning moddiy texnik bazasi va metodik-uslubiy jihatdan tashkil etilganligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ana shu sababdan ham bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimini moddiy texnik ba’zasini mustahkamlash, ta’limda yuqori natijalarga erish, ta’limni rivojlantirishda katta tajribaga ega davlatlarning tajribalarini sohaga joriy etish, yuqori saviyaga ega tajribali xorijlik kadrlarni yurtimizga taklif etilayotganligi ta’lim masalasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanganligining dalolatidir.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy taraqqiyoti ham shuni ko‘rsatmoqdaki, qaysiki malakatda ta’lim yuksalgan bo‘lsa, o‘sha joyda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham taraqiy etib xalqning turmush darajasining farovonligi oshganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ta’lim tizimini rivojlantirish jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning yuksalishiga, ma’naviy-axloqiy muhitning barqarorligiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, talimning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini yuksalishi va ma’naviy-axloqiy muhitga ijobjiy ta’siri:

birinchidan, yoshlarda ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar hamda axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish;

ikkinchidan, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali ularni ijtimoiy munosabatlar jarayonida huquqiy tartibotga amal qilishga, jamiyatda yurish turish qoidalariiga rioya etishga o‘rgatish;

uchinchidan, yosh avlodni ezgu insoniy fazilatlar, eng muhimi milliy va umuminsoniy axloq tamoyillari asosida tarbiyalash;

to‘rtinchidan, bugungi global-axborot asrida mavjud axborotlar ustida ishslash hamda o‘zлari uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan sof, toza informatsiyalarni ajrata olish malakalarini yuksaltirishning eng muhim vositasi sifatida tarbiyaviy-profilaktik jarayonlarini tashkil etish imkoniyatini beradi.

Yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni masalasidagi yuqorida bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalarga asoslanib quyidagilarni tavsiya etamiz:

birinchidan, ta’lim tizimining barcha sohalarida tahsil oluvchilarning yoshi, psixologik xususiyati hamda tafakkuri darajasini hisobga olgan holda global-axborot asridagi verbal va noverbal olam o‘rtasidagi farqli jihatlari, ahamiyati, salbiy xususiyatlari, shuningdek ularning insonning ma’naviyati, axloqiga ta’sirlari borasida profilaktik targ‘ibot ishlari, o‘quv jarayonlarini moslashtirish;

ikkinchidan, ta’lim jarayonida o‘quvchi-talabalarning o‘quv ehtiyojlarini hisobga olib holda tashkil etish va bu jarayonda jamoatchilik bilan muntazam aloqa o‘rnatishga qaratilgan yo‘nalishlarini belgilab olish;

uchinchidan, tizimda axborot kommunikatsion texnologiyaladan foydalangan holda o‘quvchilarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish, ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish xavfsizligi, mas’uliyati va axloqiy normalarga rioya etishni yanada kuchaytirish;

to‘rtinchidan, ta’lim tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan axborot resurslari, raqamli texnologiyalar, “Online-maktab”, “Online-to‘garak”, “Online-repetitor” kabi resurslaridan fanlarni o‘qitish jarayonida samarali foydalanishda integratsiyani ta’minlash;

beshinchidan, o‘quvchi-talabalarning ta’limdagi yangi tamoyillarni egallash va o‘z kasbiy amaliyotiga joriy etishda ma’suliyat va moslashuvchanlik layoqatini, axborotlar bilan ishslash, kommunikativ, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, umummilliy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl va usullarini joriy etish;

oltinchidan, fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish, professor-o‘qituvchilarning o‘qitish, ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlar jarayonida erishgan yutuqlari va ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishni zamonaviy talablarga mos ravishda tartib qoidalarini aniq ilmiy tahlil va xulosalar asosida muntazam takomillashtirib borish yaxshi samara beradi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Axborot xurujining mazmun-mohiyati, xususiyatlari va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri borasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan kimlarni bilasiz?
- 2.“Information Space” nima?
3. Axborot xurujlarining inson, jamiyat va davlatlarning ijtimoiy taraqqiyotiga ta’siri qanday?
4. Innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
5. Yoshlarda axloqiy immunitetni shakllanirishda ta’lim tizimi o‘ziga xos qanday xususiyatlarga ega ekanligini bilasizmi?
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sod Qarori qabul qilingan sanani toping?

7. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishda qanday ijtimoiy xususiyatlarga, tartiblarga rioya etish zarur?
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilingan sanani toping?
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni qanday nomlanadi?
10. Global-axborot asri, degada qanday tasavvurga egasiz?

AMALIY TOPSHIRIQ TEST

1. “*Information Space*” nima?

- A) Axborot makoni.
- B) Axborotni qabul qilish.
- C) Axborotni ishlatish.
- D) Axborot darajasi.

2. “*Provakatsiya*” qanday ma’noni anglatadi?

- A) Qasddan uyushtirilgan va og‘ir oqibatlarga olib keladigan xattiharakat, fitna, ig‘vogarlik.
- B) Axborotni qabul qilish ma’nosini bildiradi.
- C) Axborotni ishlatish ma’nosini bildiradi.
- D) Qasddan uyushtirilgan axborotdir.

3. *Informatsion tahdidlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang?*

- A) OAVlar orqali davlatning milliy siyosatini tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko‘rsatish.

B) Faqat internet orqali davlatning milliy siyosatini tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish.

C) Faqat gazetalar orqali davlatning milliy siyosatini tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish.

D) Faqat jurnallar orqali davlatning milliy siyosatini tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish.

4. Feyk –

A) Inglizcha soxta, qalbaki degan ma'noni bildiradi.

B) Fransuzcha soxta, qalbaki degan ma'noni bildiradi.

C) Nemischa soxta, qalbaki degan ma'noni bildiradi.

D) Ispancha soxta, qalbaki degan ma'noni bildiradi.

5. Immunitet-

A) Lotincha immunitas – biror narsadan xalos bo'lish, qutilish degan ma'noni bildiradi.

B) Faransuzcha immunitas – biror narsadan xalos bo'lish, qutilish degan ma'noni bildiradi.

C) Ingilizcha immunitas – biror narsadan xalos bo'lish, qutilish degan ma'noni bildiradi.

D) Ispancha immunitas – biror narsadan xalos bo'lish, qutilish degan ma'noni bildiradi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori qabul qilingan sanani toping?

A) 2019-yil 31-dekabrda.

B) 2018-yil 31-dekabrda

C) 2019-yil 21-dekabrda

D) 2018-yil 21-dekabrda

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qarori qanday nomlanadi?

A) Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

B) Uzluksiz tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

C) Uzluksiz ma'naviyat konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

D) Uzluksiz ta'lim konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilingan sanani toping?

- A) **2019-yil 8-oktabrda.** B) 2018-yil 8-oktabrda.
C) 2020-yil 8-oktabrda. D) 2017-yil 8-oktabrda.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni qanday nomlanadi?

- A) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

B) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

C) Uzluksiz ma’naviyat konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

D) Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

10. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ...

- A) **24.09.2020-yilda kuchga kirgan.** C) 24.09.1997-yilda kuchga kirgan.
B) 24.09.1992-yilda kuchga kirgan. D) 24.09.2022-yilda kuchga kirgan.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son Farmoni qanday nomlanadi?

- A) Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
 - B) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
 - C) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
 - D) Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldaggi VM-422-soni qarorining nomi keltirilgan qatorni aniqlang?

- A) Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida

B) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.

C) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.

D) Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-son qarori qabul qilingan sanani aniqlang?

- A) 2020-yil 6-iyulda C) 2021-yil 6-iyulda
 B) 2022-yil 6-iyulda D) 2023-yil 6-iyulda

14. Xalq ta’limi vazirligining 2019-yil 31-oktabrdagi “Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Etika kodeksi)” 349-son buyrug‘i tasdiqlangan sanani aniqlang?

- A) 2019-yil 31-oktabrda C) 2021-yil 6-iyulda
 B) 2022-yil 6-iyulda D) 2023-yil 6-iyulda

15. Xalq ta’limi vazirligining 2019-yil 31-oktabrdagi 349-son buyrug‘i qanday nomlanadi?

- A) Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Etika kodeksi)
 B) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
 C) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
 D) Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

GLOSSARIY

TUSHUNCHА	MAZMUN
Information Space	Axborot makoni.
Mafkuraviy immunitet	(lot. immunitas – biror narsadan xalos bo‘lish, qutilish) – ma’lum bir shaxs yoki ijtimoiy guruhda o‘ziga xos bo‘lgan qat’iy, barqaror, sog‘lom mafkuraviy qarashlarning shakllanganligi, ma’lum mafkura tamoyillarini ular tomonidan o‘z ijtimoiy-siyosiy faoliyati va yashash tarzi mezoniga aylantirilganligidir.
Provakatsiya	Qasddan uyushtirilgan va og‘ir oqibatlarga olib keladigan xoinona ish yoki xatti-harakat,

	fitna, ig‘vogarlik hamda harbiy to‘qnashuv, mojaro keltirib chiqarish maqsadida qilingan tajovuzkorlik xatti-harakat.
Informatsion tahdidlar	OAVlari orqali davlatning milliy siyosaini tanqid qilish, soxta xabarlar tarqaish, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko‘rsatish.
Xuruj	To‘satdan hujum qilish, hujum. Issiq, sovuq, shamol, yomg‘ir, o‘t, suv kabi tabiat kuchlarining inson irodasiga nisbatan qarshiligi, hamlasi, avjiga chiqish, kuchayishi.
Feyk axborot	Feyk — (inglizcha) soxta, qalbaki axborot deganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T., O‘zbekiston, 2017-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T., O‘zbekiston, 2018-y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. T., O‘zbekiston, 2019-y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar. Keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. –T.: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M.. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 16-iyun.

II. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03/19/563/3685-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagи “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-son qaror

6. Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Etika kodeksi) (Xalq ta’limi vazirligining 2019 yil 31 oktyabrdagi 349-son buyrug‘i.

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar. Keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. –T.: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021.

III. Maxsus adabiyotlar

1. O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi. 1-jild. Tuzuvchilar: K.Xoshimov, S.Ochilov. - T., “O‘qituvchi”, 1995-y.
2. Quronov M. Otalar kitobi. - T., “O‘zbekiston”, 2006-y.
3. Quronov M. Milliy tarbiya. - T., “Ma’naviyat”, 2007-y.
4. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014-y.
5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste’dod, 2010-y.
6. Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiya muammolari. – T.: Akademiya, 2011-y.
7. Paxrutdinov Sh. Barqaror taraqqiyot va rahbar ma’suliyati. – T.: Akademiya, 2011-y.
8. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: “O‘zbekiston”, 2012-y.
9. Paxrutdinov Sh., Saidolimov S., Mamatqulov D. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari (xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini malakasini oshirish kurslari uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2017-y.
10. Mahmudov O. Farzandnoma. T., “O‘qituvchi” 2018-y.
11. A.Qodirov va boshqalar. Baxtli bola ma’naviyati. “Muharrir”, T.:2018-y.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
2. MuxtarovA. Harakatlar strategiyasi – mamlakatni rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy va mafkuraviy asoslari: ijimoiy-falsafiy nazariya va amaliyot. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018.

3. Quronov M., Qodirov A., Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2018.
4. G‘aybullayev. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019, 483-bet.
5. Pedagogik ensiklopediya. II-jild. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2015-y.
6. Falsafa: ensiklopedik lug‘at/ O‘zR FA, I.Mo‘minov nomidagi falsafa va huquq instituti. –T.: “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2010.
7. A.Musaxoniy. Axborot makoni paydo bo‘lishi mumkinmi?// Jamiyat va boshqaruv, 2006-yil. №1
8. “Tarbiya” 5-6-7-8-9-sinflar uchun darslik. 2020-y.

IV.Elektron ta’lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari Milliy bazasi.
2. <http://www.eduportal.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi axborot-ta’lim portalı.
3. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portalı.
4. <http://www.multimedia.uz> - Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.
5. <http://www.eduportal>- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portalı.
6. <http://www.rtm.uz> - Respublika ta’lim markazi sayti.
7. <http://www.dtm.uz> - Respublika test markazi sayti.
8. <http://www.edunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.
9. <http://www.ziyonet.uz> - ZiyoNET ta’lim axborot tarmog‘i.

MUNDARIJA

Kirish	3-bet
1. Axborot xurujlari tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	4-bet
2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishlari.....	20-bet
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish tartiblari....	28-bet
4. Oliy ta’lim tizimida yoshlarni axborot xurujlaridan asrashda axloqiy immunitetni shakllantirish masalalari	36-bet
Xulosa.....	43-bet
Mustahkamlash uchun savollar	46-bet
AMALIY TOPSHIRIQ (TEST	47-bet
Glossariy	50-bet
Foydalanilgan adabiyotlar	51-bet